

Dekabr, 2024-Yil

ISHSIZLIK MUAMMOLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI

Toshpulatova Sayyoraxon Sirojiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti "Sotsiologiya yo'nalishi" talabasi.

sayyoratoshpolatova27@gmail.com

Nurqulov Bunyod

Ilmiy rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14477585>

Annotatsiya. Ushbu maqolada diplomli va diplomsiz ishchilarning mehnat bozoridagi o'rni, ish topish imkoniyatlari va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holati tahlil qilinadi. Maqolada mehnat bozoridagi talablar, oliy ta'limning roli va diplomsiz ishsizlarning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari masalalari ham muhokama qilingan. Shuningdek, ta'lim va malaka olishning jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri, mehnat bozoridagi tengsizliklar va diplomning ijtimoiy darajani belgilashdagi roli yoritildi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy – iqtisodiy, mehnat bozori, ta'lim, jamiyat, ishsizlik, iqtisodiy inqirozlar, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, investitsiya, xususiy sektor.

UNEMPLOYMENT PROBLEMS AND THEIR ORIGINS UNEMPLOYMENT PROBLEMS AND THEIR ORIGINS.

Abstract. This article analyzes the position of unemployed workers in the labor market, their job opportunities, and their socio-economic status in society. The article also discusses labor market requirements, the role of higher education, and professional development opportunities for unemployed people without a degree. Also, the impact of education and qualification on social and economic changes in the society, inequalities in the labor market and the role of the diploma in determining the social level were highlighted.

Key words: Socio-economic, labor market, education, society, unemployment, economic crises, automation, artificial intelligence, investment, private sector.

ПРОБЛЕМЫ БЕЗРАБОТИЦЫ И ИХ ПРИЧИНЫ.

Аннотация. В данной статье анализируется положение безработных на рынке труда, их возможности трудоустройства, а также их социально-экономический статус в обществе.

В статье также рассматриваются требования рынка труда, роль высшего образования и возможности профессионального развития для безработных без высшего образования. Также было подчеркнуто влияние образования и квалификации на социально-

Dekabr, 2024-Yil

экономические изменения в обществе, неравенство на рынке труда и роль диплома в определении социального уровня.

Ключевые слова: *Социально-экономический, рынок труда, образование, общество, безработица, экономические кризисы, автоматизация, искусственный интеллект, инвестиции, частный сектор.*

Rivojlanib borayotgan davrda yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham ko'payib bormoqda.

Ishsizlik muammosi esa butun dunyo bo'yicha global muammo sifatida ko'rilmogda.

Yurtimizda tadbirkorlikka, o'z- o'zini band qilish sohalariga katta e'tibor qaratilayotgan bir davrda, ishsizlik hajmi ham kundan- kunga ortmogda. Buni raqamlar nisbatida ham ko'rishimiz mumkin. 2024-yilda mehnat bozoriga 2mln 400ming aholi kirib kelgani, bu esa 2023- yildagi ko'rsatgichdan qariyb 2 barobarga oshgani aniqlandi. Agar biz bu muammolarga yechim topmasak, kelib chiqish sabablarini o'ranmasak bu raqamlar yildan – yilga ortib boradi xolos[1]. Bugungi kunda respublika bo'yicha 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud (yil bishida 1 ming 24 ming nafar bo'lgan)[2].

Jahon yoki mahalliy miqyosdagi iqtisodiy inqirozlar ko'plab sohalarda ish o'rinlarini kamayishiga, ishsizlar sonini ko'payishiga olib kelmogda. Bundan tashqari avtomatlashtirish va sun'iy intellektning rivojlanishi tufayli, bazi ish o'rinlari yo'qolishi, yangi ish o'rinlari esa texnologik malakalarni talab qilmogda. Yana bir asosiy sabablardan biri oliy ta'lim tizimi bilan mehnat bozorining talablarining o'rtasida o'zaro moslik yo'qligi ishsizlar muammolarining asosiy sababi hisoblanadi. Ko'plab oliy o'quv yurtlari va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlanayotgan yoshlar mehnat bozorida talab etilayotgan ko'nikmalarni yetarli darajada olishmaydi. Ba'zan ta'lim tizimi iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga tezda moslasha olmaydi, bu esa mutaxassislar bilan bo'lgan talab va taklif orasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari Ba'zan oliy ta'limni olishning o'ziga xos muammolari ham mavjud.

Talabalar faqat nazariy bilimlar bilan ta'minlanadi, amaliy tajriba va ko'nikmalarni olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Yangi bitiruvchilar ko'pincha o'qigan sohalarida amaliy tajriba va malaka olishda qiynaladi, bu esa ularning ish bozorida raqobatlashish imkoniyatlarini kamaytiradi. Ba'zi sohalarda esa, oliy ta'limning darajasi bo'yicha ish o'rinlari mavjud bo'lmaganligi sababli, diplomli ishsizlar bu bo'shliqni to'ldira olmaydi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, Zamonaviy mehnat bozori tez o'zgarib turadi va texnologik inqiloblar ham yangi talablarni keltirib chiqaradi.

Dekabr, 2024-Yil

Yangi texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish kabi jarayonlar ko'plab sohalarda ish o'rinlarini qisqartirgan yoki yangi ko'nikmalarni talab qilgan. Ishsizlar esa bu o'zgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki ular ko'p hollarda eski usullar va bilimlarga tayanadilar. Masalan, informatika yoki raqamli marketing kabi sohalarda ishlash uchun zamonaviy texnologiyalarni bilish zarur, lekin bu ko'nikmalarni olish uchun ko'plab bitiruvchilar qo'shimcha kurslar yoki o'qishlar o'tkazishlari zarur bo'ladi.[3]

Bugungi kunda oliy ta'limni tamomlaganlarning soni ortib bormoqda, bu esa mehnat bozoridagi raqobatni oshiradi. Ishchilar o'rtasida ham raqobat kuchayadi va yuqori malakali ish o'rinlari uchun talab va taklif o'rtasidagi tenglikni topish qiyinlashadi. Shuningdek, ko'plab kompaniyalar va tashkilotlar, agar imkoniyati bo'lsa, kamroq tajribali, lekin yirik kompaniyalarda ish tajribasiga ega bo'lgan yoshlarni ishga olishni afzal ko'rishadi. Bu esa yangi diplomli mutaxassislariga qarshi raqobatni yanada kuchaytiradi. Ishsizlar ko'pincha kam malakali ishchilarga mo'ljallangan ish o'rinlari uchun raqobatlashadilar. Aholining yosh bo'lishi va ta'limga erishish imkoniyatlarining kengayishi tufayli, ba'zida diplomli ishchilar ham past malakali ish o'rinlarida ishlashga majbur bo'lishadi. Bu raqobat ishsiz ishchilar uchun yanada qiyinlashtiradi, chunki ular ko'pincha malakali ish o'rinlari uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaydi.

Xulosa: Ishsizlik muammosi faqat ta'lim tizimi va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga emas, balki ijtimoiy va psixologik omillarga ham bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozoridagi talablar o'rtasidagi moslikni yaxshilash, yangi texnologiyalarni o'rganish va amaliy tajribaga e'tibor qaratish ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ishsizlikka qarshi kurashishda ta'limning sifatini oshirish, ishga joylashish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish va yoshlarni qayta malakalandirish dasturlarini amalga oshirish zarur ishsizlar muammosi ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar bilan bog'liq.

Ta'lim darajasi va malaka yetishmasligi, ish bozorida past malakali ishchilarga bo'lgan talabning kamayishi va raqamli ko'nikmalarning etishmasligi — bu ishsizlikni kuchaytiradigan asosiy faktorlardir. Muammoning hal qilinishi uchun, ishsizlarga kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, ijtimoiy yordamlar va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish zarur.

Mehnat bozorida ularning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun yangi ta'lim dasturlari, malaka oshirish kurslari va raqamli texnologiyalarni o'rganish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. <https://stat.uz/uz/>
2. <https://kun.uz/news/2021/10/30/ozbekistonda-ishsizlik-sabablari-maosh-kammi-yoki-yaxshi-xodim?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F10%2F30%2Fozbekistonda-ishsizlik-sabablari-maosh-kammi-yoki-yaxshi-xodim>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimiz-mehnat-bozorida-ishsizlik-va-ish-bilan-bandlik-holati-tahlili/viewer>
4. NURQULOV B. YOSHLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISH OMILLARI //UzMU xabarlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.3. 1. – C. 190-193.
5. Nurqulov B. G. THE MAIN THEORETICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF POLITICAL SOCIALIZATION //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 426-431.
6. Nurqulov B. G. SAYLOV VA UNING YOSHLAR FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 432-436.
7. Нуркулов Б., Равшанова О. JORJ GERBERT MIDNING RAMZIY INTERAKSIONIZM NAZARIYASI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 402-405.
8. Nurqulov B. et al. PITRIM SOROKINNING “SOTSIAL VA MADANIY DINAMIKA” ASARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 289-291.
9. Panjiyeva Z. et al. RAZMIY INTERAKTSIONIZM TAMOIYILLARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 292-295.
10. A'ZAMXONOV S. OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIHLARNI TASHKIL ETISH //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 63-66
11. Saidabzalkhan A. MODERN CONCEPTS OF HUMAN CAPITA MEASUREMENT <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> <https://zenodo.org/records/8003552#>. – 2023.
12. A'zamxonov S. X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 381-386.
13. Аъзамхонов С. TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM OLIHLINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.

Dekabr, 2024-Yil

14. Azamkhanov S. SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF MODERN FORMS OF ORGANIZING STUDENTS'INDEPENDENT WORK //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5.
15. Ilxomov, Umrbek, and Parizod Nasirdinova. "IRVING GOFFMANNING DRAMATURGIYASI." NRJ 1.3 (2024): 239-245.
16. ILXOMOV, Umrbek. "SOTSIAL MOBILLIK YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATNING OMILI SIFATIDA." News of UzMU journal 1.1.2. 1 (2024): 110-114.
17. Ilxomov, U. U., and P. Sh Nasirdinova. "UMUMIY-O „RTA TA „LIM MUASSASALARIDA O „QITISH METODI VA BITIRUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO „NALTIRILGANLIGI DOLZARB MASALA." Academic research in educational sciences 3 (2024): 252-256.
18. Ilxomov U. U. YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOLARINING INDEKATORI //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 263-268.
19. Ilxomov U. U. YOSHLAR ISHSIZLIGI IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2024. – №. 3. – C. 257-262

MODERN SCIENCE
& RESEARCH